E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

Ta`limda axborot texnologiyalarining o`rni, multimedianing kirib kelishi

Crossref Doi : https://doi.org/10.37547/iqro-volume04-issue01-48

Ergashev Alisher Farhod o‘g‘li

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti 3-fakulteti Xorijiy til va adabiyot yo‘nalishi

Xodjayeva Shaxnoza Abdukarimovna

O‘zDJTU Romano-german filologiyasi fakultetining “Ispan tili” amaliy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi

Anotatsiya

Ushbu maqolada bugungi kunda axborot – kommunikatsiyalarning ta`limda tutgan o`rni, o`quvchilarning bilim olishida ijobiy ta`siri hamda o`quvchi-yoshlarga texnik vositalardan qanday foydalanish haqida bilimlarning berib borilishi haqida so`z yuritiladi.

Kalit so`zlar

Axborot, raqam, texnologiya, multimedia, sifat, texnologiya, rivojlanish, o`quvchilar, electron

Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) barcha sohaga deyarli kirib kelmoqda. Shu jumladan ta’limda ham AKTdan keng foydalanilmoqda. Ta’lim jarayonida o’quvchi-yoshlarga texnik vositalar va multimedia texnologiyalari asosida ta’lim berish, berilayotgan bilimni tez va oson o‘zlashtirilishi, ularning tushunarli va xotirada yaxshi saqlanishiga yordam berayotganligi amalda o‘z isbotini topib kelmoqda va ijobiy ta`sir ham ko`rsatilmoqda.

Hozirgi kunda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi va barcha sohalarga kirib borishini hisobga olib aytadigan bo’lsak, oliy va o’rta maxsus ta’limda foydalanilayotgan darslik va qo’llanmalarning raqamli ko’rinishi yaratilib darslarda elektron variantidan foydalanilmoqda. Bunda birqancha avzalliklari mavjud, masalan, internet tarmog’i orqali adabiyotni osongina topish mumkin, kerakli jumlani tezroq topish imkoni ham mavjut. Hozirda nashiryotlarda chop qilinayotgan maktab darsliklar, badiiy adabiyotlar, gazeta va jurnallarning elektron ko’rinishi internet tarmog’iga joylanmoqda. Elektron shakli bo’lmagan adabiyotlarning elektron shakli zamonaviy skaner aparatlari yordamida yaratilmoqda va internet tarmog’iga,joylanmoqda.

O‘qituvchilarning an’anaviy o‘qitish usulida laboratoriya va amaliy ishlar o‘tkazilishi uchun ko‘p vaqt ajratiladi. U nafaqat o‘quvchi-talabaning nazariy bilimlarini mustahkamlashga, o‘quv materialini o‘zlashtirish samarasini oshirishga, balki muayyan sohada amaliy ko‘nikmalarni hosil qilishga ham ko‘mak beradi. Biroq bunday mashg‘ulotlar to‘laqonli natija beradi, deya olmaymiz.

Multimedia – bu kompyuter yoki boshqa raqamli ma’lumotlar bilan ishlovchi boshqa texnik vositalar orqali taqdim etiladigan matn, tasvir, ovoz va videodan iborat murakkab

ko‘rinishdagi ma’lumotlarr markazi. Ma’lumotni yorqin tasvir va animatsiya, videotasvir va matn, o‘ziga jalb qiluvchi ovoz ko‘rinishida qabul qilish natijasida axborotni ong va tasavvurda keng xis qilish mumkin. Agar bu jarayonga interaktivlik tadbiq qilinsa, u holda ta’sir doirasi yanada ortib boradi.

Multimedia deb - matn, tasvir, ovoz, animatsiya va videoning bir butun ko‘rinishiga aytiladi. Agar foydalanuvchi multimedia ilovani tomosha qilish bilan birgalikda uni boshqara olsa, u holda bunday ilovalar interaktiv multimedia ilovalari deyiladi. Agar ilovada strukturasida navigatsiya mavjud bo‘lsa, u holda bunday multimediali ilova Gipermedia deb ham ataladi.

Multimedia ilovalarini ishlab chiqish bir necha bosqichda amalga oshiriladi, ulardan asosiylari quyidagilar:

1.Rejalashtirish.

2.Elementlarni ishlab chiqish.

3. Dasturiy ta'minot.

4. Tekshirish.

5. E'lon qilish.

6. Reklama.

7. Kuzatuv.

Multimedia vositalari asosida o’quvchilarga ta'lim berish va kadrlarni qayta tayyorlashni yo’lga qo’yish xozirgi kunning dolzarb masalalaridandir. Multimedia tushunchasi 90-yillar boshida xayotimizga kirib kelgan. Multimedia - bu informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari asosida audio, video, matn, grafika va animatsiya (ob'yektlarining fazodagi xarakati) effektlari asosida o’quv materiallarini o’quvchilarga yetkazib berishning mujassamlangan xoldagi ko’rinishidir. Rivojlangan mamlakatlarda o’qitishning bu usuli, xozirgi kunda ta'lim sohasi yo’nalishlari bo’yicha tatbiq, qilinmoqda. Xatto, xar bir oila multimedia vositalarisiz xordiq, chiqarmaydigan bo’lib koldi. Multimedia vositalarining 1981 yildagi yalpi oboroti 4 mlrd. AQSh dollarini tashkil qilgan bo’lsa, 1994 yili esa 16 mlrd. AQSh dollarini tashkil kildi. X,ozirgi kunda esa sotilayotgan har bir komp'yuterni multimedia vositalarisiz tasavvur qilib bo’lmaydi. Kompyuterlarning 70-yillarda ta'lim soxasida keng qo’llash yo’lida urinishlar zoye ketganligi, avvalombor, ular unumdorligining nixoyatda pastligi bilan bog’liq edi. Amaliyot shuni ko’rsatmoqdaki, multimedia ' vositalari asosida o’quvchilarni o’qitish ikki barobar unumlidir va vaqtdan yo’tish mumkin. Multimedia vositalari asosida bilim olishda 30 % gacha vaqtni tejash mumkin bo’lib, olingan bilimlar esa xotirada o’zoq muddat saqlanib qoladi. Agar o’quvchilar berilayotgan materiallarni ko’rish (video) asosida qabul qilsa, axborotni xotirada saqlab qolinishi 25-30 % oshadi. Bunga qo’shimcha sifatida o’quv materiallari audio, video va grafika ko’rinishda mujassamlashgan holda berilsa, materiallarni xotirada saqlab kolish 75 % ortadi.

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

Bunga biz multimedia vositalari asosida chet tillarini o’rganish jarayenida yana bir bor ishonch xosil qildik.

Multimedia vositalari asosida o’quvchilarni o’qitish quyidagi afzalliklarga ega:

a) berilayotgan materiallarni chuqurroq, va mukammalroq o’zlashtirish imkoniyati bor;

b) ta'lim olishning yangi sohalari bilan yaqindan aloqa qilish ishtiyoqi yanada ortadi:

v) ta'lim olish vaqtining qisqarish natijasida, vaqtni tejash imkoniyatiga erishish;

g) olingan bilimlar kishi xotirasida o’zoq muddat saqlanib, kerak bo’lganda amaliyotda qo’llash imkoniyatiga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Gulyamov S.S., Ayupov R.X. Миллий иқтисодиётда рақамли технологиялардан фойдаланишнинг стратегик ахамияти. Тошкент, www.UzA.uz, УзМАА – Узбекистон Миллий Ахборот Агентлиги «Электрон журнали», УзМАА Ахборотномаси, 2019 йил

2.Gulyamov S.S., Ayupov R.X. Рақамли иқтисодиёт ва унинг асосий ривожланиш йўналишлари. УзР Статистика Кумитаси электрон журнали, 2019 йил

WORDLY
KNOWLEDGE